



UO*K 811.512.133*373.612.2:58]:82-1'06

Gulnora MUQIMOVA,
Buxoro viloyati PMM Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri, dotsent, PhD
E-mail: gulnoramuqimova416@gmail.com

PhD M.Akhmedova taqrizi asosida

ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATIDAGI FITOMORF METAFORALAR LINGVOPOETIKASI

Annotatsiya

Tilda har bir unurning o'z vazifasi, ma'no doirasi, boshqa unsurlar, birliklar bilan bog'lanish qonuniyatlari mavjud. Ana shu qonuniyatlardan mukammal boxabar bo'lgan, badiiy didi, so'z sezgisi va mahorati yuksak Shavkat Rahmon betakror tasvir, kutilmagan, ohorli badiiy lavhalar, so'z chaqinlarini paydo qila oladiki, kitobxon adibning nafaqat g'oyasi, balki go'zal tilining asiriga aylanadi. Shoir fitonimlardan asarlarida ularning o'z va ko'chma ma'nolaridan mahorat bilan foydalanib, ular vositasida ta'sirli lavhar yarata olgan

Kalit so'zlar: fitomorf, metafora, lingvopoetika, ko'chma ma'no, o'xshatishlar.

PHYTOMORPHIC METAPHORS IN MODERN UZBEKISTAN POETRY LINGUOVOETICS

Annotation

Each element in the language has its own function, scope of meaning, laws of connection with other elements, units. Shavkat Rahmon, who is perfectly aware of these laws, has a high artistic taste, sense of words and skill, is able to create unique images, unexpected, catchy artistic scenes, flashes of words, which make the reader become a prisoner not only of the writer's idea, but also of his beautiful language. The poet skillfully uses phytonyms in his works, their inherent and figurative meanings, and creates an impressive masterpiece through them

Keywords: phytomorph, metaphor, linguovoetics, figurative meaning, similes.

ФИТОМОРФНЫЕ МЕТАФОРЫ В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКИСТАНСКОЙ ПОЭЗИИ ЛИНГВУПОЭТИКА

Аннотация

Каждый элемент языка имеет свою функцию, сферу значений, законы связи с другими элементами, единицы. Шавкат Рахмон, прекрасно осознающий эти законы, обладает высоким художественным вкусом, чувством слова и мастерством, способен создавать уникальные образы, неожиданные, запоминающиеся художественные сцены, вспышки слов, которые делают читателя пленником не только идеи писателя, но и его прекрасного языка. Поэт умело использует фитонимы в своих произведениях, их внутренние и переносные значения, и создает с их помощью впечатляющий шедевр.

Ключевые слова: фитоморф, метафора, лингвупоэтика, переносное значение, сравнения.

Kirish. XX asrning eng iste'dodli, millatparvar, xalqning dardini kuylay olgan, kuylaganda ham samimiy, xalqona, yurakka yaqin ayta olgan shoirlaridan biri Shavkat Rahmondur. Shoir she'rlarini dastlab o'qigan kitobxon ularni biroz tushunmaganday bo'ladi, qayta-qayta o'qiganidan kiyin, so'zdagi ilohiylik va kuch uni o'ziga tortadi. Boshqa shoirlarda uchramaydigan, she'rdan-she'rga o'tganda takrorlanmaydigan chiroqli ko'chimlar, o'xshatishlar har bir o'quvchini sehlrab qo'yadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Adabiyotshunos va yozuvchi Nurulloh Muhammad Raufxon Shavkat Rahmon haqidagi "She'riyatga ko'chgan shaxsiyat" deb nomlagan yodnoma – maqolasida, shoir she'riyatini, uning shaxsiyati bilan bog'lab talqin qilgan: u she'rlarida nimaiki yozgan bo'lsa, hayotda ham o'zini shunday tutdi,– deydi.

Ayonki, tilda har bir unurning o'z vazifasi, ma'no doirasi, boshqa unsurlar, birliklar bilan bog'lanish qonuniyatlari mavjud. Ana shu qonuniyatlardan mukammal boxabar bo'lgan, badiiy didi, so'z sezgisi va mahorati yuksak Shavkat Rahmon betakror tasvir, kutilmagan, ohorli badiiy lavhalar, so'z chaqinlarini paydo qila oladiki, kitobxon adibning nafaqat g'oyasi, balki go'zal tilining asiriga aylanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Shoir fitonimlardan asarlarida ularning o'z va ko'chma ma'nolaridan mahorat bilan foydalanib, ular vositasida ta'sirli lavhar yarata olgan. Misol:

Unuttanim yo'qdir hali o'rikzorni, asov soyni,
Coy bo'yida ko'zdan xoli bakaterak o'sgan joyni.

Shoirming "Esdalik" nomli she'ridan keltirilgan mazkur she'riy parchada o'rikzor va baqaterak fitonimlari o'z ma'nosida ishlatilgan. Bu tabiat tasviri shunchalik tabiiyki, siz o'zingizni go'yo o'sha yerda bo'lgandek tasavvur qilasiz:

Vodiydagi ulkan o'riklar

Bir kechada oppoq gulladi. [ShRS,31-b]

Umumxalq tilidagi badiiy tasvirga muvofiq birliklarni tanlash, saralash va sayqallash she'rda muhim ahamiyat kasb etadi. She'rda metaforaning asosiy vazifasi obyektini boshqa obyekt bilan taqqoslab, esda qolarli tasvirni yaratishdir. Shuning natijasida tasvir kuchli, sig'imli bo'ladi va ishlatilgan taqqoslashlarning g'ayrioddiylik tufayli katta ta'sir ko'rsatadi. Shoirming quyidagi she'rida qo'llangan mana shu g'ayrioddiylik yalangoyoq yashil daraxtlar jumlasini orqali yanada ochiq ifodalangan:

Oq sukunat porlar saharda, kun nurida yonib, yaraqlab,

Chopib kirar sovuq shaharga yalangoyoq yashil daraxtlar. [ShRS, 10-b.]

Ma'lumki, yalangoyoqlik insonga xos bo'lgan ko'rinish, daraxtlarni yalangoyoq bo'lish hodisasi shoir she'riyatida shunday ta'riflangan: shaharda qish bo'yi yalang'och junjikib o'tirgan daraxtlar yashil libos kiygan emas. Balki bular butunlay boshqa daraxtlar – sovuq shaharni uyg'otish uchun, oppoq sukunatga qarshi isyon ko'tarish uchun uzoq yerlardan yayov yugurib kelayotgan allaqanday

bahodirlar [1]. Yam-yashil daraxtlar bir kechada allaqaerlardan yalangoyoq yugurib kelganday tuyuladi bizlarga.

Shavkat Rahmon she'rlari shu qadar tabiiyki, o'qisangiz, ko'z oldingizda xuddi kino lentasidek yaxlit bir manzara keladi. Ayniqsa, uning "Ozodlik qo'shig'i" shunday she'rlardan biridir. Shoirming Turkiylarning rus mustamlakachilaridan hurlikka erishgan kunidagi holati fitonimlar misolida berishi, she'ring obrazlilikini yanada oshirgan. Shoir shunday kunlar keladi, go'yo yaproq yozgan (bahorni sog'ingan) daraxtdek baxtga to'lasan deydi. Baxtli bo'lish, unga to'lish bu insonga xos bo'lgan tuyg'u bo'lib, shoir insonga xos bo'lgan baxtga to'lish holatini metafora yo'li bilan daraxtga ko'chirgan:

Yana yaproq yozgan daraxtga,
Atirgulga do'narsan nuqul. [ShRS, 32-b.]

Shavkat Rahmon ushbu she'riy parchada chin ma'nodagi insonni "atirgulga do'nasan" – go'zallik ramziga aylanasan deydi. She'rdan aynan atirgul obrazini keltirilishi, atirgulga xos bo'lgan go'zallikni, iforni insonlarga ko'ra olish, insonni go'zallik ramziga aylantira olishdir.

So'z qo'llashning san'at darajasida yoki san'at darajasida emasligini baholash uchun, eng avvalo, so'z, uning ma'nosi va bu ma'noning mohiyatini aniq tasavvur etish lozim. Albatta, so'zning qo'llanishi bilan bog'lik holda yuzaga chiqadigan qo'shimcha ma'no nozikliklari, mazmun o'zgachaligi turli tasvir usullari va vositalari orqali reallashishi mumkin. Shoir yaratgan misralarda shunday takrorlanmas jumlar bor.

Yechib oppoq kuylagani vaqt, kiydi yashil gulli kuylagin.

Yurak, uyg'on, kapalak kabi chechaklarga qo'nib o'ynagin.

Mazkur she'rdan shoir daraxtlar bir kechada yashil kuylak kiydi deydi. Ayonki, ko'ylak kiyish faqat insonlarga xos xususiyat bo'lib, bu harakatni shoir o'simlikka mahorat bilan ko'chirgan.

Maysalarin tarab, parvozga shaylanadi cheksiz dalalar.

O'spirinlar quchog'ida mast, Qirda asir tushgan lolalar. [ShRS, 33-b.]

Lola haqida jahon adabiyotida, milliy adabiyotimizda juda go'zal obrazlar yaratilgan, lekin shular ichida Shavkat Rahmonning o'z topilmasi, hissiy va aqliy tuyg'usida to'yingan o'ta go'zal, ohorli topilmasi ajralib turadi. Qirda asir tushgan lolalar misrasidagi lola sevikli yor ma'nosida kelgan. Ma'lumki, asirga tushish bu salbiy ma'noda bo'lib, she'rdan ijobiy, sevgi tuyg'usiga asirga tushish metaforasini bildiradi. She'rdan o'spirinlar leksemi ham bekorga keltirilmagan. O'spirinlik tuyg'ular jo'sh uradigan davr hisoblanadi. Mastlik holatini esa shoir lolaning tez so'lishi holatiga o'xshatgan. Shuningdek, lola fitonimi go'zallik, noziklik ma'nosida ham ifodalangan. Lirik qahramonning asirga tushish holati Shavkat Rahmongagina xos metaforik ko'chim bilan berilgan bo'lib, bu shoirming naqadar yuksak mahoratga egaligini anglatadi. She'rdan tasvir metaforalar orqali shunchalar aniq chizilganki, kitobxon beixtiyor asir tushgan lolalarni ko'z oldiga keltiradi.

Bog'larda oq alanga gurlar, telba qilar shamollar isi,
Gilos gulin kiygan ko'chada oqib borar qizlar kulgisi.

[ShRS, 33-b.]

Shavkat Rahmon hayotini yonib yashagan shoirlardan bo'lgani uchun o'zi his qilganlarini she'rlarida ham akslantiradi. Bog'lardagi daraxtlarni qiyg'os gullashini shoir chiroyli metaforik ko'chim sifatida qo'llab, bog'larda oq alanga gurlar deb tasvirlaydi, biz ham bahor faslida daraxtlarni oppoq gullaganini ko'rganmiz, lekin uni oq alanga gurullashi deyishimiz uchun Sh. Rahmondek shoirona qalb, musavvirona ta'b, sohir tasavvur kerak deb o'ylayman. Bizga bunday she'riy lazzatni, albatta, oddiy so'zlar emas, metaforalar yetkaza oladi.

Tahlil va natijalar. Shavkat Rahmon she'riyatida metaforalarning o'rni va ahamiyati katta bo'lib, shoir o'z she'rlarida belgi yoki predmetni ifodalovchi so'zlar bilan bir qatorda harakatni ifodalovchi so'zlar ishtirokida ham betakror metaforalar yaratgan. Masalan, "Hamal" nomli she'rida hayvonlarga xos bo'lgan xususiyat, jarayonga, tabiatda sodir bo'ladigan holatni o'xshatib ajoyib metafora hosil qiladi. She'ring obrazli, ta'sirli chiqishi uchun shoir tabiatning barcha hodisalariga murojaat qilib ko'rgan.

Shavkat Rahmonning bahor tasviriga bag'ishlangan deyarli barcha misralari, asosan, metaforaga asoslangan. Shoirming boshqa ijodkorlardan farqi shuki, u tabiat hodisalarini, borliq o'zgarishlarini insonga tanish xabariyatlar asosida, mo'yqalam bilan chizilgandek tasvirlab bera oladi.

Shoirming she'rlaridan birida daraxt fitonimi bilan birga "o'rgatmoq" fe'li qo'llanilgan bo'lib, she'r muallifi muallim singari insonga qanday yashashni o'rgatishi ifodalangan. Daraxt misolida bir inson taqdirida sodir bo'ladigan turli sinovlarning bo'lib turishi va sabr qilgan kishi ko'klamga ham yetishiga ishoralar berilgan. Shoir o'rgatmoq fe'lini daraxtga nisbatan qo'llab, hayot falsafasini o'quvchiga anglatishga harakat qiladi:

Har bahorda menga erinmay
yashamoqni o'rgatar daraxt. [ShRS, 34-b.]

Shoirming samimiy, xalqona she'rlari tabiatni sevishni, undagi har bir giyohni asrashni va uni shunchaki o'simlik deb emas, sen uchun yaqin bo'lgan insonlar: ota-oni, opa-singil, aka-ukalaringdek yaqin olishni o'rgatadi. Shoir she'rlarida o'zbek xalqining ming yillik tabiat falsafasi aks etgan desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Tabiatdagi har bir giyoh, barg, gul, daraxt kabilarni ko'chma ma'noda qo'llab, ular vositasida ohori to'kilmagan metaforalarni voqelantiradi.

Tun gurkirab o'sar yovonda
O'sganidek bir to'p gulxayri. [ShRS, 51-b.]

Shoir nazdida, tun ham gulxayridek, daraxtdek zamindan samoga qarab o'sadi, tabiat va inson qismati uyg'unlashgan holatda mavjud bo'ladi. Tabiatning bir bo'lagi bo'lgan insonda ham to'rt fasl bir-bir keladi. Umrning bahori bo'lganidek, yozi, kuzi va qishi ham bor. Umr fasllaridan unumli foydalanish va ularning har biridan bir hikmat izlash mazmunini shoir she'rlaridan ilg'ab olish mumkin.

Maysalarning bag'riga kirar,
Qizib ketgan tog'lik shabada. [ShRS, 51-b.]

Yoz faslida havo haroratining oshib ketishi natijasida tog'dagi shabadaning ham qizib ketishi, natijada shabada o'zini maysalar bag'riga olish holati metaforik hodisadir. Shoir tabiatning bu holatini oddiy, metaforasiz tasvirlaganda kitobxonning ko'z o'ngida maysalarning shabada ta'sirida chiroyli, dengiz kabi to'liqlanishi yaqqol namoyon bo'lmagan bo'lardi.

Shoir bir she'rida daraxt fitonimi orqali qahramonning ichki olami, e'tiqodi, irodasi va maqsadlarini ta'sirli ifoda etganligini kuzatish mumkin. Shoir fikricha, ildizi zaminga chuqur singan daraxt shunday buyuk kuchga egaki, u sabrli insonlardek tabiatning injiqliklariga, dovulu shamollariga chidaydi. Shoir daraxt fitonimi vositasida buyuk daholarimiz, el dardini kuylagan buyuklarimiz obrazini aks ettiradi. Ular taqdirning har qanday ayancli qismatlariga chidaydilar. Shu bois xalq ularni necha yil yoki asr o'tsa ham eslaydi, ardoqlaydi, hayoti va faoliyatini o'rganadi.

O'sayotgan kuchli daraxtman, shoxlarimda pishar so'zlarim,

Uychan kuzak kelguvchi yo'lga ikki tog'day boqar ko'zlarim. [ShRS, 69-b.]

Shavkat Rahmon she'rlaridagi fitonim metaforalarning lingvopoetik tahlili jarayonida aniqlandiki, shoir o'z kechinmalari va his-tuyg'ularini ifodalashda badiiy tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalangan. Xususan, shoir lirik qahramonning ruhiy holatni yorqin tasvirlashda fitonim

metaforalardan unumli hamda samarali foydalangan. Bu borada Shavkat Rahmon o'ziga xos, original uslub yarata olgan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Shavkat Rahmon she'rlarida lirik qahramon o'zini daraxt deb ataydi; daraxtdek meva berishni, osmonga bo'y cho'zishni istaydi. Shoirning "Baland daraxtlar" she'rida daraxtlar ikki guruhga ajratilgan. Baland daraxtlar — ona Vatan ozodligi, millat erki uchun kurash olib borgan, kerak bo'lsa jonini fido qilib, jasorat ko'rsatgan xalqning ziyolilari, yurt boshiga qanday kunlar kelsa ham mardonavor tura olgan fidoyilar. Past daraxtlar esa baland daraxtlar soyasida qolgan pastkash, g'iybatchi kimsalardir.

Shavkat Rahmon ijodida bobochinor fitonimi sergak ota, xalqining boshiga kelayotgan voqealardan xabardor kishining fazilati ko'chirilgan.

Shoir she'rlarida terak va majnuntol daraxti nomlarini keltirib, qora mehnatdan ezilgan xalqning qaddi dol, u terakdek emas, majnuntoldek egilgan holatini metafora yo'li orqali fitonimlarga ko'chiradi. Uning quyidagi she'rida olma fitonimi fozil, yaxshi insonlar ma'nosini ifodalab kelgan:

Momo Havom, uchma yolg'onga, aynib qopti uning miyasi:

ikkimizni so'qir va avom asramoqdir asl niyati...

Oyoq solib kavsar suviga, qay tarafga nazar solmasin, chap ko'zining qirini tashlab qo'riqlaydi bihisht olmasin.

Shoirning boshqa bir she'rida olma fitonimi ishq va sevgi ko'chma ma'nolarida kelgan. Giyoh va gul fitonimlari orqali shoir insonning go'zal orzu-maqсадlarini ko'chma ma'noda ifodalashga harakat qilgan. Shavkat Rahmon she'rlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, u atirgul fitonimi timsolida o'zbek ayoli poetik obrazini yaratgan. Shoir o'zidagi kuchli emotsional holatni lola fitonimi orqali yetkaza olgan, ezilgan lolalar metaforik xususiyati jihatidan iztirob, azoblanish ma'nolarini bildiradi. Bu so'z umid, iztirob ko'chma ma'nolarida qo'llangan.

Shavkat Rahmon ijodida chaqirtikanak ko'chma ma'noda firoq, ayriliq ma'nosida keladi. Misol:

Olmalarni ichi qora vaqt olib qo'ydi qo'llarimizdan,
shundan beri chaqirtikanday firoq o'sar yullarimizda.
[ShRS,-37 b]

Shoir inson xarakteridagi salbiy xususiyatni ifodalashda shumg'iy fitomorf metaforasidan foydalangan. Og'zaki nutqda uncha faol bo'lmagan bu o'simlikning

lug'aviy ma'nosi boshqa ekinlar ildizidan oziqlanadigan tekinox'r yovvoyi o't bo'lib, u o'z manfaatini ko'zlab, o'zgalar hisobiga yashovchi shaxs, o'z manfaatini boshqalar manfaatidan yuqori qo'yadigan va shuni hisobidan kun kechiradigan kishilarga nisbatan ko'chma ma'noda aytiladi.

Shoir she'rlarida xashaki tut birikmasi qo'llangan bo'lib, undagi xashaki so'zi oddiy, sodda, og'zidan gap kelmaydigan xarakterli kishi ma'nosida istifoda etilgan. U badiiy obraz yaratish, insonlarni turfa xarakterlarini ochib berishda oyimsupurgi fitonimidan keng foydalangan. O'TILda uning o'z (poyasidan supurgi qilinadigan, doni qizil boshqli o'simlik supurgiday egilib-bukiladigan) va ko'chma (muloyim xarakterli inson) ma'nolari izohlangan.

Xulosa va takliflar. Fitomorfik metafora — o'simlik nomlarining ko'chma ma'noda kelishi va ularning shu ko'chma ma'no xususiyatlari bilan o'zaro bog'liq muhim til hodisasi hisoblanadi. O'zbek tili badiiy matnlardagi fitomorf metaforalarni lingvopoetik aspektida tadqiq etish natijasiga ko'ra uning ikki turi mavjudligi aniqlandi: 1) an'anaviy (umumiy) fitomorf metaforalar; 2) xususiy (muallif, individual) fitomorf metaforalar. An'anaviy (umumiy) fitomorf metaforalar eng qadimgi davrdan to hozirgi kungacha til va nutqda faol qo'llanishda bo'lib, uning mazmun-mohiyati nisbatan ko'pchilikka ma'lum ko'chim turlaridan biridir. Badiiy matnning xalqchilligi, estetik-tarbiyaviy ta'sirining kuchli bo'lishi ijodkorning badiiy tasvir vositalaridan mohirona ishlata bilish san'ati bilan belgilanadi. Fitomorf metaforalardan badiiy matnlarda o'z o'rnida mohirona foydalanish esa ijodkorning badiiy tafakkuri va mahoratiga bevosita bog'liqdir. Ular badiiy g'oyani ixcham, ta'sirli va aniq ifodalashda muhim poetik vosita sifatida namoyon bo'lganligini kuzatish mumkin. O'zbek xalq og'zaki ijodiga tegishli asarlarning aksariyati o'simliklar, ularning nomi bilan bog'liq ekanligini kuzatish mumkin. Mazkur asarlarda o'simlik nomlarining ko'chma ma'noda kelishi, insonga xos bo'lgan xususiyatlarning o'simlik obraziga ko'chirilishi ko'p uchraydi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, xalq og'zaki ijodi namunalarda o'simliklardan chinor, terak, majnuntol, bo'tako'z, gul, atirgul, ra'no, rayhon, mevalardan esa anor, anjir, behi uzum, o'rik kabilar nomi ko'p miqdorda metaforasiziyalashtirilgan. Ayniqsa, bo'tako'z, gul, mehriyoyo, ra'no kabi fitonimlar poetik timsol sifatida alohida tizimni tashkil etadi.

ADABIYOTLAR

1. G'aniyev I. Shavkat Rahmon olami. —T.: Akademnashr, 2013. —B. 6.
2. Rahmon Sh. Saylanma. — T.: Sharq. 1997. —384 b
3. Rahmon, Sh. Uyg'oq tog'lar: She'rlar.—T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. 192 b.
4. Safarov, O. Ochilov K. Boychechak. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1984. —325 b.
5. Shoda-shoda marvarid. O'zbek xalq qo'shiqlari. — T.: Sharq, 2006. — 416 b.
6. Safarov, O. O'zbek xalq og'zaki ijodi: T.: Musiqqa, 2010. 368 b.
7. Yusuf, M. Bevafo ko'p ekan dunyoda. -T.: nashriyot 2017. —232 b.
8. O'zbek she'riyati antalogiyasi. Besh tomlik. 1-tom. //Tuzuvchilar: H. Zarifov., M.Alaviya., S.Muttalibov. — Toshkent: O'zdamnashr, 1961. — 312 b.
9. Qayumov A. Dilkushi takrorlar va ruhafzo ash'orlar. -T.: 2014. — 272 b.